

O‘ZBEK ADABIY TILINING VAZIFAVIY USLUBLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-1-447-455>

Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,

University of Business and Science oliy ta‘lim muassasi,

Til va adabiyot ta‘limi kafedrası dotsent,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

rasuljontojimatov966@gmail.com (945637333)

Holmurodova Nigora G‘anijonovna

Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarashli 7-umum ta‘lim maktabi

Ingiliz tili fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

O‘zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari, ularning shakllanish omillari, tasnifi hamda ijtimoiy vazifalari yoritilgan. Vazifaviy uslublarning tilning umumiy lug‘aviy, grammatik va sintaktik tizimi doirasida shakllanib, kishilarning ijtimoiy faoliyati va muloqot ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. Til va nutq uslublari o‘rtasidagi farqlar, ularning o‘zaro munosabati hamda lingvistik adabiyotlarda bu masalaga doir qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek adabiy tili, vazifaviy uslublarning, til va nutq uslublari, funksional stil, so‘zlashuv uslubi, ilmiy uslub, rasmiy ish qog‘ozlari uslubi.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются функциональные стили узбекского литературного языка, факторы их формирования, классификация и социальные функции. Функциональные стили формируются в рамках общей лексической, грамматической и синтаксической системы языка и неразрывно связаны с социальной деятельностью и коммуникативными потребностями людей. Анализируются различия между языковыми и речевыми стилями, их взаимосвязь и взгляды на этот вопрос в лингвистической литературе.

Ключевые слова: узбекский литературный язык, функциональные стили, языковые и речевые стили, функциональный стиль, разговорный стиль, научный стиль, стиль официальных рабочих документов.

ABSTRACT

The functional styles of the Uzbek literary language, their formation factors, classification and social functions are highlighted. The functional styles are formed within the framework of the general lexical, grammatical and syntactic system of the language and are inextricably linked with the social activities and communication

needs of people. The differences between language and speech styles, their relationship and views on this issue in linguistic literature are analyzed.

Keywords: *Uzbek literary language, functional styles, language and speech styles, functional style, colloquial style, scientific style, style of official working papers.*

KIRISH

Til jamiyatda insonlar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi bo'lib, uning vazifalari jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boradi. Har bir milliy adabiy til o'zining ichki tizimiga ega bo'lib, bu tizim doirasida til birliklari turli ijtimoiy ehtiyojlarga moslashgan holda qo'llanadi. Ana shu ehtiyojlar asosida adabiy til tarkibida vazifaviy uslublar shakllanadi.

O'zbek adabiy tilida vazifaviy uslublar masalasi tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Har bir tildagi uslub ko'rinishlari uchun umumiy bo'lgan shu tilning umumiy lug'at jamg'armasi, shakllar va sintaktik qurilmalari, erkin va turg'un birikmalari bo'ladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy - adabiy til doirasiga birlashtiradi.

Lisoniy uslublar to'g'risida bahs yuritilganda, asosan vazifaviy uslublar nazarda tutiladi. Xo'sh, vazifaviy uslub nima, o'zbek tilida uning qanday turlari mavjud?

Vazifaviy uslublar, ularning tasnifi masalasida «til kishilarning eng muhim aloqa vositasidir» degan fikrdan kelib chiqish kerak. Til paydo bo'lgandanoq kishilar uchun huddi shu vazifani bajara boshladi. Jamiyat taraqqiyoti bilan tilning ijtimoiy vazifasi ham taraqqiy etib, rivojlanib bordi. Shuning uchun ham, vazifaviy uslublarni hosil qiluvchi asosiy omillar kishilarning ijtimoiy faoliyati va buning doiralari hisoblanadi.

Vazifaviy uslublar deganda tildan farq qiladigan qandaydir alohida narsa tushunilmaydi, balki shu aniq adabiy til sistemasining ichida qaraladigan, o'ziga xos xususiyatlari, xizmat qilish doirasi bilan bir - birlaridan farq qilib turadigan yordamchi tizim tushuniladi.

Boy adabiy an'analarga ega bo'lgan milliy tillarda vazifaviy uslublar qat'iylashgan bo'ladi hamda u kuzatuvchi ko'zi oldida dialektik birlik sifatida gavdalanadi. Shunday qilib, til uslublari adabiy tilning vazifaviy - uslubiy tabaqalanishi (*qavatlanishi, qatlamlanishi*)ning asosiy ko'rinishi hisoblanadi.

Tilning har bir vazifaviy uslubi xususiy ifoda sistemasiga ega bo'lishi bilan birga o'z navbatida har bir uslub umumxalq tilining yagona umumiy sistemasiga

kiradi. Til uslublarining harakatda olinishi, aniq amalga oshishi **nutq uslubi** deb yuritiladi. Soʻzlovchi yoki yozuvchi nutqining xarakteri nutqning qanday muhitda, qanday maqsadda bajarilayotganligiga bogʻliqdir. Demak, maʼlum soha, sharoit, maqsad va vazifalar bilan bogʻliq ravishda soʻzlovchi tilning aniq vositalarini ishlatadi. Bu vositalarning aloqaning ayrim olingan bir sohasida doimiy ravishda ishlatilishi, boshqacha qilib aytganda, tilning bu vositalari uslubiy tarmoqlanishi natijasida vazifaviy - uslublar shakllanadi.

Ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda vazifaviy uslublarga nisbatan «*til stillari*», «*nutq stillari*», «*funksional nutq stili*», «*tilning stili*», «*nutqning stili*» kabi terminlar ishlatiladi. Til va nutq uslublari, ularning tarkibi, bu uslublarning farqlari, mezonlari, ogʻzaki soʻzlashuv nutqi, badiiy adabiyot tilining uslubiy maqomi masalalarida ham olimlar bir fikrga kelishgan emas. Koʻpgina asarlarda «*tilning funksional stillari*», «*nutqning funksional stillari*» tushunchalari bir xil hodisa sifatida tushuniladi va tushuntiriladi. Aslida esa ular bir - birlaridan farq qiladi. Masalan, R. A. Budagovning fikricha, til uslublari «*umumxalq tilining tarixiy shakllangan va hammaga maʼlum belgilarning yigʻindisi bilan xarakterlanuvchi koʻrinishlaridir*». Nutq uslublari esa til uslublari fonida koʻrinadi.

Baʼzi bir tilshunoslar ularni birgalikda olib, bir hodisa sifatida qaraydilar¹.

Turli xil izohlar berib oʻtirishdan koʻra, uslublar haqida gapirganda, bizningcha, **til uslublari** terminidan foydalanaverish lozim. **Nutq uslublari** deganimizda, yuqorida eslatganimizdek, til uslublarining aloqa jarayonida qoʻllanishi tushuniladi. Bunday vaqtda til faktlarida boʻlgan jamgʻarma imkoniyatlar maydonga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, nutq uslublari til uslublarining harakatdagi formasidir.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda til uslublari tasnifida vazifaviy uslublar (***funksional stillar***) tan olinadi. Har bir alohida olingan uslub (*funksional stil*) oʻzining uslubiy boʻyogʻi bilan boshqa uslublar uchun xos boʻlgan til birlik-laridan farq qiladigan, u yoki bu darajada ular bilan uslubiy raqobat hosil qiladigan maʼlum bir sistemaga ega boʻladi. Akademik V. Vinogradov aytganidek, tilning uch xil eng muhim ijtimoiy vazifasi mavjud: ***aloqa, xabar, taʼsir etish***. Ana shu uch vazifani bajarishda tarixiy jihatdan tilning har biri oʻziga xos lugʻaviy frazeologik va grammatik vositalariga ega boʻlgan sistemalari shakllanadi. Ana shular tilning vazifaviy uslublaridir. V. Vinogradovning bu umumiy tasnifi asosida til uslublari shunday turlarga ajratiladi:

- 1) Soʻzlashuv nutqi uslubi (*tilning aloqa - aralashuv funksiyasi*),
- 2) Ilmiy uslub (fanga iod atama hamda termin),

¹ Морен М., Тетерникова Н. Н. Стилистика современного французского языка.- М.: Изд-во литературы на иностранных языках. 1960.

- 3) Rasmiy ish qog'ozlari uslubi (*tilning xabar, axborot berish funksiyasi*),
- 4) Publitsistik uslub (OAV, Radio, TV, Gazeta va Jurnal),
- 5) Badiiy nutq uslubi (*tilning ta'sir qilish, targ'ibot - tashviqot funksiyasi*).

Ma'lum matnning qaysi uslubga tegishli ekanligini uslubiyat to'g'risida ma'lumotga ega bo'lmagan kishi ham o'z sezgisiga asoslangan holda aniqlab olishi mumkin. Chunki, har qanday aniq-nutq u yoki bu vazifaviy uslubning normalariga mos ravishda maydonga keladi. Unda boshqa ayrim uslublar belgilari ham bo'lishidan qat'iy nazar, o'zining qaysi uslubga tegishli ekanligini ko'rsatib turadi.

Yana bir masalaga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Ba'zi ilmiy ishlarda alohida mustaqil vazifaviy uslub sifatida ro'znoma uslubi, notiqlnk, maktubiy, texnikaviy uslub tarzidagi guruhlashlar ham uchraydi. Bizningcha, ularni mustaqil uslublar sifatida emas, balki boshqa uslublar ichida, ularning yaqinligini hisobga olib qaralsa maqsadga muvofiq bo'lar. Masalan, maktubiy uslubning janrlari og'zaki so'zlashuv uslubi bilan bog'langan bo'lsa (*do'stiga, o'rtog'iga yozilgan xatlar*), ikkinchi bir xillari ish qog'ozlari uslubiga aloqador (*tashkilotlar o'rtasidagi yozishmalari*), uchinchi bir xillar, publitsistik uslub bilan yaqinlashadi (*masalan, tahririyatga yozilgan ochiq xatlar*). Shuning uchun maktubiy uslubni rasmiy uslub ichida kenja uslub sifatida qarash va uning boshqa uslublarga munosabatinn aniq ko'rsatish mumkin.

Xullas, til uslublarini aniqlash, ularning son jihatidan tasnifini berishda hamda har bir vazifaviy uslubning ichki bo'linishlarini belgilashda, til uslublari va nutq uslublari masalasida olimlar fikri hozircha bir nuqtaga birlashgan emas. Har qalay, V. Vinogradov qarashlariga asoslangan tasnifga tayanib (unda ham ayrim noqisliklar bor) ² vazifaviy uslublarni o'zbek tilshunosligida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vazifaviy uslublar tilning alohida mustaqil shakli emas, balki adabiy tilning ichki yordamchi tizimi hisoblanadi. Ular muayyan ijtimoiy soha, muloqot muhiti va kommunikativ maqsad bilan belgilanadi. Har bir vazifaviy uslub o'ziga xos leksik, grammatik va stilistik vositalar majmuasiga ega bo'ladi.

Olim V.Vinogradov tasnifiga ko'ra, tilning asosiy ijtimoiy funksiyalari uch yo'nalishda namoyon bo'ladi: *aloqa, axborot berish va ta'sir etish*. Ushbu funksiyalar asosida o'zbek adabiy tilida quyidagi vazifaviy uslublar ajratiladi:

№	Vazifaviy uslub	Asosiy vazifasi	Qo'llanish sohasi
1	So'zlashuv uslubi	<i>Aloqa</i>	<i>Kundalik muloqot</i>
2	Ilmiy uslub	<i>Axborot berish</i>	<i>Fan va ta'lim</i>
3	Rasmiy ish qog'ozlari uslubi	<i>Axborot berish</i>	<i>Ma'muriy-yuridik soha</i>

² Кожина М. Н. Стилистика русского языка- М.: Просвещение, 1977, с. 37-38

4	Publitsistik uslub	<i>Ta'sir etish</i>	<i>OAV, ijtimoiy hayot</i>
5	Badiiy-adabiy uslub	<i>Ta'sir etish</i>	<i>Adabiyot va san'at</i>

Tadqiqot metodlari

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ✓ tavsifiy metod – vazifaviy uslublarning xususiyatlarini bayon etishda;
- ✓ qiyosiy metod – til va nutq uslublarini farqlashda;
- ✓ tahliliy metod – ilmiy manbalar va nazariy qarashlarni

umumlashtirishda;

- ✓ sistemali yondashuv – vazifaviy uslublarni yagona til tizimi doirasida o'rganishda.

So'zlashuv uslubi. So'zlashuv uslubi kishilarning kundalik norasmiy, erkin muomalalari doirasida til birliklarining o'ziga xos amal qiluvidir.

Nutqda til unsurlarining ishtirok etishiga ko'ra kitobiy uslub sifatida qaraluvchi ilmiy, rasmiy ish qog'ozlari va publitsistik uslublarga so'zlashuv uslubi qarshi turadi deyish mumkin. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasida nutqiy aloqaning bevosita amalga oshuvi, nutqiy jarayonning oldindan tayyorlab qo'yilmaganligi, nutqiy munosabatda bo'layotgan kishilar o'rtasida rasmiy muomalaning bo'lmasligi so'zlashuv uslubini boshqa vazifaviy uslublardan keskin chegaralaydi. Shuning uchun ham so'zlovchilar o'rtasida rasmiy muomala bo'lganda ularning nutqi ham kitobiy uslubning reallashishiga o'xshab qoladi.

So'zlashuv uslubining yana bir farqi shundaki, unda lisoniy va nolisoniy omillarning munosabati boshqa vazifaviy uslublardagiga ko'ra mustahkamdir. Shu sababli mazkur uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirganda bu ikki faktorni uzviy aloqadorlikda olib qarash kerak bo'ladi. Xo'sh, so'zlashuv uslubi qanday o'ziga xosliklarga ega?


So'zlashuv uslubi fonetik, leksik, grammatik o'ziga xosliklarga ham ega.

Nutqda tovushlarning uyg'unlashuvi (*assimilyatsiya*), bir tovush o'rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*dissimilyatsiya*), tovushlarning o'zni almashishi (*metateza*), tovushlarning orttirilishi (*proteza, epenteza, epiteza*) yoki tushirilib qoldirilishi (*prokopa, sinkopa, apakopa, reduktsiya*) kabi fonetik hodisalar eng avvalo so'zlashuv usulida namoyon bo'ladi. Ularga ayrim misollar keltirish bilan chegaralanamiz: *assimilyatsiya - ketti, ottan, yigichcha*; *assimilyatsiya - zaril, bironta*; *metateza - turpoq, aynalmoq*; *proteza - o'ramol, o'raza*; *epenteza - fikir, dakalad*; *epiteza - kioska, otpuska, banka*; *prokopa - ag'ach, irik*; *sinkopa - direktir, traktir*; *apakopa - gazet, reduktsiya - bo'rni, egni* kabilar.

Muhokama.

Vazifaviy uslublar bir-biridan keskin ajralgan tizimlar emas, balki yagona adabiy til doirasida o‘zaro aloqada bo‘lgan qatlamlardir. Ayrim nutqiy vaziyatlarda bir uslub elementlari boshqa uslub tarkibida ham uchrashi mumkin. Bu holat tilning moslashuvchan va dinamik tabiatini ko‘rsatadi.

Quyidagi sxema vazifaviy uslublarning umumiy tizimini ifodalaydi:



Barcha vazifaviy uslublar uchun umumiy bo‘lgan adabiy xolis lug‘aviy qatlam so‘zlashuv nutqi uchun ham xosdir. Shu bilan birga, so‘zlashuv uslubi lug‘aviy qatlamiga diqqat qilinsa, unda ikki qatlam, ayniqsa, ko‘zga tashlanib turadi. Birinchi qatlam - bu kundalik turmush muomalasida faol qo‘llaniladigan, uy-ro‘zgor buyumlari bilan bog‘liq so‘zlar. Bundan tashqari « *san‘at, madaniyat, sport va so‘zlovchining kasb - hunarga mansub xilma-xil narsa va hodisalarni ifodalovchi umumadabiy leksika ko‘plab ishlatiladi*»³.

Rasmiy ish qog‘ozlari uslubi. Rasmiy ish qog‘ozlari uslubi hozirgi o‘zbek adabiy tilining ma‘muriy va yuridik ishlarda amal qiladigan bir ko‘rinishidir. Qonunlar matnlari, farmonlar, buyruq va qo‘llanmalar, shartnomalar, ijozatnomalar, aktlar, har xil rasmiy hujjatlar, tashqilotlar o‘rtasidagi yozishmalar, sudlardagi chiqishlar, yuridik xarakterdagi og‘zaki axborotlar, ma‘lumotnomalar rasmiy ish qog‘ozlari uslubida yoziladi va gapiriladi.

Rasmiy ish qog‘ozlari uslubi vazifaviy uslublar doirasidagi boshqa uslublardan lugaviy va grammatik xususiyatlari jihatdan farqlanadi.

Ushbu uslub leksikasi asosan kitobiy va xolis (neytral) so‘zlardan iborat bo‘lishi bilan birga shu uslub bo‘yog‘iga ega bo‘lgan yuqorida ko‘rsatilganlar, quyidagi imzo chekuvchilar, yo‘llanadi, qabul qilib oluvchi, mazkur kabi so‘z va turg‘un birikmalarni ham o‘z ichiga oladi.

Rasmiy ish qog‘ozlari uslubi leksikasiniig yaia bir xususiyati unda professional (*yuridik, diilomatik, ma‘muriy va boshqalar*) terminologiyaning mavjudligidir: akt, guvohnoma, qaror, hal qiluv qarori, qidirish, aybni ogirlashtiradigan xato, ahdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, muxtor elchi, ishonchli vaqil, nota, shartnoma, bayonot, deklaratsiya, vizit, xalqaro vaziyat va hokazo. Mazkur uslubdan

³ Шомаксудов Д. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 15-бет

ko'plab ma'muriy na adliya sohalarda qo'llailgani uchun u ko'p janrli uslub sanaladi.

Bu uslubda jargonlar, og'zaki so'zlashuv uslubiga xos so'zlar, dialektizmlar, emotsional - ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar deyarli ishlatilmaydi. Bu narsa tanlangan so'zlarning va hatto gap qurilishining rasmiy munosabatni ifodalashga bo'ysundirilganligi bilan izohlanadi.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fan, texnika va ishlab chiqa-rish bilan bog'liq bo'lgan vazifaviy uslubdir. U o'z ichida yana ilmiy - texnikaviy, ilmiy - hujjat, ilmiy - ommaviy, o'quv - ilmiy, publitsistik kabi bir necha sof ilmiy turlarga bo'linadi.

Ilmiy - texnikaviy uslub ifodada qat'iy ilmiy-akademizm uslubi bilan xarakterlanadi. Bu to'ring tipik janrlarni maqola, monografiya va ilmiy ma'ro'za kabilardir. Bu uslub ichida yana uning o'quv - ilmiy uslubi deb ataluvchi turini ajratish mumkin.

Ilmiy - hujjatiy uslubga esa ixtiro uchun olinadigan hujjat (patent) ning yoki shu patentga tegishli adabiyotlarning tasvirlanishi, bayon qilinishi asosdir. Bu uslubning asosiy vazifasi - ilmiy axborot to'g'risida ma'lumot berish va uni huquqiy jihatdan himoya qilishdir.

Ilmiy - ommabop uslub ilmiy ma'lumotni, axborotni ommabop qilib tushuntirishdir. Bunda ko'proq ma'lum soha to'g'risida gapirilganda bu soha bo'yicha mutahassis bo'lmagan kishilar nazarda tutiladi.

Har bir uslub o'z ichida til xususiyatlari, nutqiy vositalar tarkibi, ifodalash, bayon qilish usuli bilan bir-birlaridan farqlanib turadi. Masalan, ilmiy - texnikaviy uslubda bayon qilinadigan fizika, kimyo, tarix, matematika kabi fanlarning tili bir xil emas. Chunki, ularning har biri o'ziga xos atamallari, lug'aviy va frazeologik vositalarga ega. Lekin bu farqlar ularning har birini alohida uslub sifatida ajratishga imkon bermaydi. Bu farqlar, eng avvalo, fanlarning mundarijasi, o'rganish obyekti bilan bog'langan bo'lib, ilmiy fonda uslubi ular uchun umumiy hisoblanadi.

Natija

Ilmiy uslubning hozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

- a) axborotning obyektivligi, aniqligi;*
- b) nutqning ma'lumotlarga boyligi;*
- v) fikrning qisqa, lo'nda ifodalanyshi⁴.*

⁴ Мукаррамов.М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили.—Тошкент: Фан, 1984.

Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, unda muallif xolisona intilishi natijasida muallif individualligi sszilmas darajaga keladi. Subyektiv - emotsionallik, obrazlilik, og'zaki nutq unsurlari, umuman g'ayri -uslubiy unsurlar kam ishlatiladi. Muallif iloji boricha fnkrni bir xil normada ifdolashga intiladi. Ammo ilmiy fikr yuritilayotgan manba, mavzu bilan, muallifning shaxsini uslubi bilan bog'liq ravishda ba'zan ilmiy uslubda ham obrazli ifodalardan foydalanishlar ko'zga tashlanadi. Masalan: Differentsial tenglamalarning xususiy hosilalari fizikaga cho'ri bo'lib ishga kirdi, keyin u cho'ridan bekaga aylanib ketdi. (R. Bekjonov.)

Publitsistik uslub. Publitsistik asarlarning (*masalan, xabar, reportaj, korrespondentsiya, makola, ocherk, feleton, pamflet, bosh maqola va boshqalarning*) uslubiy chegaralanishi ularning, eng avvalo, alohida lisoniy belgilarga ega ekanligida ko'rinadi. Ana shu lisoniy belgilar o'zbek tilining publitsistik asarlarda amal qilishida ma'lum ma'noda yopiq sistema mavjud ekanligiga dalildir. Bu yopiq sistema, ya'ni chegaralanish publitsistik asarlar tilining uslubiy o'ziga xosligi bo'lnb, o'zbek tili vazifaviy uslublari doirasida publitsistik uslub nomi bilan yuritiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek adabiy tilining vazifaviy uslublari tilning ijtimoiy vazifalari asosida shakllangan murakkab va yaxlit tizimdir. Har bir uslub muayyan muloqot sohasi va kommunikativ maqsadga xizmat qiladi. Vazifaviy uslublarni ilmiy asosda o'rganish til madaniyatini yuksaltirish, nutq samaradorligini oshirish va tilshunoslik nazariyasini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Морен М., Тетерникова Н. Н. Стилистика современного французского языка.- М.: Изд-во литературы на иностранных языках. 1960.
2. Кожина М. Н. Стилистика русского языка- М.: Просвещение, 1977, с. 37-38.
3. Шомаксудов Д. ва бошқ. Ўзбек тили стилистикаси.- Тошкент: Ўқитувчи, 1983, 15-бет
4. Мукаррамов.М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. – Тошкент: Фан, 1984
5. Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 1-kitob. – B.6-12
7. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 212.
8. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б.3.

9. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.
10. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 б.
11. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.